

**QO‘LLANMAGA IZOH**  
**«TALABA» DASTURI**  
**UNDERGRADUATE STUDENTS 2027**

Ushbu hujjat dasturga hujjatlarni tayyorlashda e’tibor qaratish kerak bo‘lgan ko‘rsatmalar va qo‘shimcha ma’lumotumotlar kiritilgan izoh hisoblanadi.

**Dastur haqida to‘liq ma’lumot Ingliz yoki Yapon tilidagi ko‘llanmada (Application guidelines) ko‘rsatilgan, uni diqqat bilan o‘qib chiqishingiz zarur.**

Yaponiya Hukumati (Monbukagakusho: MEXT) 2027 akademik yilda Yaponiya universitetlarida chet el talabalari uchun talaba sifatida bakalavr unvonini egalash uchun ta’lim olishni taklif etadi.

**TARTIB VA SARALASH MEZONLARI**

(qo‘llanmaning 5, 9, 10 bandini qo‘ring)

Nomzodning tug‘ilgan sanasi **2002-yil 2-apreldan** bo‘lishi kerak.

Nomzod saralash birinchi bosqichida Yaponiya elchixonasiga taqdim etilgan hujjatlari, yozma imtihon va suhbatlashish yakunlari bo‘yicha tanlov asosida saralash o‘tkazadi. Hujjatlar to‘liq topshirilmagan yoki belgilangan talablarga javob bermagan taqdirda, nomzod tanlovning keyingi bosqichiga qo‘yilmaydi.

Yozma imtihon testlardan tashkil topgan bo‘lib quyidagi kursatilgan fanlar asosida ixtisos yo‘nalishiga asoslangan holda qabul qilinadi. Yapon tilidan bilim darajasi kamida boshlangich bo‘lishi kerak N5 yoki N4. Yapon tili sinovidan 0 olgan talabalar keyingi bosqichga o‘tmagan hisoblanadilar. Yapon tili imtihon sinovi kelajakdagi ixtisoslikka asoslangan holda inobatga olinadi, shunga qaramasdan nomzod Yapon tili va madaniyatini o‘rganishga qiziqish ko‘rsatish va tayyor bo‘lish kerak.

<b>Tanlangan soha</b>	<b>Fanlar</b>
Gumanitar Ijtimoiy Fanlar-A	Yapon tili (A), Ingliz tili (A), Matematika (A)
Gumanitar Ijtimoiy Fanlar-B	
Tabiiy Fanlar-A	Yapon tili (B), Ingliz tili (B), Matematika (B), Kimyo, Fizika
Tabiiy Fanlar-B	Yapon tili (B), Ingliz tili (B), Matematika (B), Kimyo Biologiya
Tabiiy Fanlar-C	

Arizada ko‘rsatilgan 14 bandiga asoslangan holda, agar birinchi tanlov Gumanitar ijtimoiy Fanlar (Social Sciences and Humanities—A guruh va B-guruhlar qatoridan tanlangan bo‘lsa, keying ikkinchi va uchinchi tanlov ham shu ixtisosdan tanlab olingan bo‘lish kerak. Tabiiy Fanlarni tanlagan nomzod birinchi tanlovni A-guruhdan qilgan bo‘lsa keying ikkinchi va uchinchi tanlovni ham A-guruhdan qilish lozim, agar tanlov B-guruhdan qilingan bo‘lsa keying ikkinchi va uchinchi tanlovni ham B-guruhdan qilish lozim. C-guruhni tanlagan talabalar, shu yonalishdagi fanlar kamligini inobatga olgan holda ikkinchi tanlovni B va C guruhdan tanlashi lozim, uchinchi tanlov esa B guruhdagi fanlardan tanlash lozim.

Yozma testlarga tayyorlanish uchun o‘tgan yilgi testlar savolnomalarini va ularning javoblarini quyida ko‘rsatilgan saytdan ko‘rib yuklab olishingiz mumkin:

<https://www.studyinjapan.go.jp/en/planning/scholarship/application/examination/>

**DASTUR REJASI**

<b>23 aprel 2026</b>	Dasturning e’lon qilinishi
<b>25 may</b>	Hujjatlarni qabul qilish yakunlanishi
<b>10 iyun</b>	Anketalar tanlovi natijalarining e’lon qilinishi ( <b><i>nomzodlar o‘zlari telefon qilishadi</i></b> )
<b>iyun oyi o‘rtasi</b>	Yozma imtihon ( <b><i>Imtihon o‘tkaziladigan vaqt va joy keyinroq ma’lum qilinadi</i></b> )
<b>iyun oyi oxiri</b>	Yozma imtihon natijalari ma’lum qilinishi
<b>iyul oyi boshi</b>	Suhbatdan o‘tish
<b>2027 yil yanvar - fevral</b>	Tanlovning yakuniy natijalari ma’lum qilinishi
<b>2027 yil aprel</b>	Yaponiyaga yetib kelinishi

So‘rovnoma-arizani va barcha ilova qilinadigan hujjatlarni quyidagi veb-saytlardan olishingiz mumkin:

<https://www.studyinjapan.go.jp/en/smap-stopj-applications-undergraduate.html>

## HUJJATLAR RO'YXATI

Nomzod Elchixonaga quyida ko'rsatilgan hujjatlarning 2 ta to'plamini 2026 yil 25 may soat 17:00 gacha taqdim etishi lozim. Hujjatlar qaytarib berilmaydi. Hujjatlar asl va ko'chirma nusxada bo'lishi lozim.

№	Hujjatlar	asl nusxa	ko'chirilgan nusxa	Izohlar
1	So'rovnoma-ariza (Application form)	<input type="radio"/>	<input type="radio"/>	2026 y. belgilangan namunadagi blank. (*3) Fotosurat har bir to'plamda bitta asl nusxadan bilan, oxirgi olti oy ichida olingan 4.5 x 3.5 o'lchamda bo'lishi kerak.
2	To'gridan to'gri joylashish hujjati (Direct Placement Preference Application Form)	<input checked="" type="radio"/>	<input type="radio"/>	Kerakli hujjatlarni birinchi saralashdan so'ng faqat (a) " Social Sciences and Humanities" gumanitar fanlarini tanlagan, shuningdek (b) ta'lim yo'nalishidan "Natural Sciences" (tabiiy fanlar) qat'i nazar, to'g'ridan-to'g'ri joylashtirishni istagan nomzodlar tomonidan topshiriladi. (9-eslatmaga qarang)
3	Maktabdagi ta'lim yillarining natijalari ko'chirmasi	<input type="radio"/>	<input type="radio"/>	Maktab/ oliy o'quv yurti tomonidan rasmiy muhr bilan tasdiqlangan. Elektron QR kod qabul qilinmaydi.
4	Attestat nusxasi yoki litsey diplomi(oxirgi o'qish joyidan ilovasi bilan)	<input type="radio"/>	<input type="radio"/>	Maktab/oliy o'quv yurti tomonidan rasmiy muhr bilan tasdiqlangan. Attestat yoki diplomni olmagan talabalar uchun o'qish joyidan ma'lumotnoma. Elektron QR kod qabul qilinmaydi.
5	Nomzod bitirgan O'Yu dan tavsiyanoma (maktabdan-sinf rahbaridan, litseydan-litsey direktoridan)	<input type="radio"/>	<input type="radio"/>	Ixtiyoriy shaklida (Namunasi bor)
6	Tibbiy guvohnoma	<input type="radio"/>	<input type="radio"/>	2027 y. belgilangan namunadagi blank, ingliz tilida to'ldirilib, doctor imzosi va shifoxonaning (poliklinika) muhri bo'lishi shart. Har qanday shifoxona (poliklinika) yoki xususiy tibbiyot markaziga murojaat qilishingiz mumkin.
7	Talabalar uchun OO'Yu dan ma'lumotnoma	<input checked="" type="radio"/>	<input checked="" type="radio"/>	Faqat talabalar uchun
8	Kirish imthonlarni tugagan ligi hakida OO'Yu guvohnomasi	<input checked="" type="radio"/>	<input checked="" type="radio"/>	Faqat ushbu imtixon topshirgan talabalar uchun
9	Chet tilida imtixon topshirilgan haqidagi guvohnoma	<input type="radio"/>	<input checked="" type="radio"/>	Ushbu guvohnoma mavjud bo'lsa 2 nusxa topshirilsin. Sertifikatning berilgan sanasi ariza berilgan kundan boshlab <u>ikki yildan kam</u> bo'lmasligi kerak. (10-eslatmaga qarang)

### \* Quyidagi ko'rsatmalarga e'tiboringizni qaratamiz:

- Oq doira (○) bilan belgilangan hujjatlar barcha nomzodlar tomonidan topshirilishi kerak. Qora doira (●) bilan belgilangan hujjatlar faqat mavjud bo'lgan holda taqdim etilishi lozim.
  - Barcha hujjatlar qat'iy ingliz yoki yapon tilida to'ldirilgan va tuzilgan bo'lishi lozim.
  - To'g'ri to'ldirilmagan, yoki hujjatlar to'liq topshirilmagan taqdirda, Yaponiya elchixonasi nomzodni saralashning keyingi bosqichiga o'tkazmaslik huquqini saqlab qoladi.
  - So'rovnomaning 1 bandida ingliz tilidagi ismi-sharifingiz, ota ismini pasport bo'yicha yozilishi lozim.
- 10 bandida O'zbekiston tizimi bo'liyicha olingan ta'lim ma'lumotida «Primary Education» degan joyida 1chi sinfdan 4chi sinfgacha 4 yil ko'rsatiladi; «Lower Secondary Education» - 5chi sinfdan 9chi sinfgacha 5 yil; «Upper Secondary Education» - kollej va litseydagi 3 yil; «Tertiary(Higher) Education (Undergraduate)» - OO'Yu dagi bakalavr o'quv yillari; (ta'til oylari qo'shilgan holda to'liq yil inobadga olinsin).

5. Attestat faqat ko'chirilgan nusxada bo'lishi lozim, va ushbu ko'chirmasi rasmiy muhr bilan maktab, litsey, institut tomonidan tasdiqlangan bo'lishi zarur.

Agar ariza topshirish vaqtida nomzod universitetda tahsil olayotgan bo'lsa, u holda u maktab attestatining nusxasini hamda o'qigan yillari uchun baholar ko'rsatilgan akademik ma'lumotnomani taqdim etishi lozim.

6. Talab etilgan barcha hujjatlarning yuqori o'ng burchagiga ① dan ⑨ gacha raqamlab chiqish lozim. Hujjatlar tartib raqamiga ega bo'lmagan taqdirda, ko'rib chiqilmaydi.

#### **7. Hujjatlarni stepler bilan biriktilmaslik kerak.**

8. Tibbiy guvohnomani taqdim etilgandan so'ng sog'lig'ida o'zgarishlar yuz bergan taqdirda, bu haqda darhol Yaponiya elchixonasiga xabar berishingiz shart.

9. To'g'ridan-to'g'ri kirish huquqini beradigan bakalavriat dasturi kurslari ro'yxati arizachining mamlakatidagi Yaponiya diplomatik vakolatxonasi tomonidan taqdim etiladi. Birinchi hujjatlar skriningni tugatgandan so'ng, (a) ijtimoiy va gumanitar fanlarni tanlagan va to'g'ridan-to'g'ri qabul qilish huquqiga ega bo'lgan va (b) ta'lim yo'nalishidan qat'i nazar (tabiiy fanlar) to'g'ridan-to'g'ri qabul qilishni xohlaydigan abituriyentlar to'g'ridan-to'g'ri qabul shaklini tanlab, to'ldirishlari kerak. Anketani topshirishdan oldin, ariza beruvchilar Yaponiya diplomatik missiyasidan qaysi bakalavriat kurslari to'g'ridan-to'g'ri qabul qilinishiga ruxsat berishini aniqlashlari kerak.

Universitet abituriyentning akademik ko'rsatkichlarini (o'rta maktab baholari va h.k.) o'rganadi va tilni bilish imtihoni (masalan, yapon tili) natijalariga ko'ra, uning bakalavriatda yapon yoki ingliz tillarida o'qish uchun yetarli til ko'nikmalariga ega ekanligini aniqlaydi. Masalan, Yapon tili uchun malaka testi (JLPT) orqali bõlishi mumkin Bundan tashqari, ba'zi universitetlar abituriyentlar uchun suhbat yoki boshqa imtihonlarni o'tkazishi mumkin. Test natijalariga ko'ra, Universitet abituriyentni qabul qilish to'g'risida qaror qabul qiladi, aks holda abituriyent tayyorgarlik kursidan o'tishi kerak.

10. Agar siz yapon tilini bilishingizni tasdiqlovchi sertifikat taqdim etsangiz, to'plagan ballaringiz haqida ma'lumotnomani ham taqdim etishingiz kerak.

11. Birinchi va ikkinchi saralash bosqichlaridan (yozma imtihon va suhbat) muvaffaqiyatli o'tish universitetga qabul qilinishga kafolat bermaydi, yakuniy qaror Yaponiya Ta'lim, madaniyat, sport, fan va texnologiyalar vazirligi tomonidan qabul qilinadi

**O'quv dasturlari, so'rovnomalarni to'ldirish va dastur bilan bog'liq savollar tug'ilganda Elchixonaga qat'iy soat 09:00 dan 13:00 gacha hamda 14:00 dan 17:30 gacha, Madaniyat va jamoatchilik bilan aloqalar bo'limiga 78-120 80 76/60/61/62 telefoniga murojaat qilishingiz mumkin.**